

OLIV TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA "KOMPLAYENS NAZORAT" TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

Raximov Mirvali Donaevich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta'lim tizimida uchrab turadigan korrupsiya hodisalari, bularga qarshi kurashishning qonuniy asoslari, korrupsiyaga qarshi Milliy agentlik amalga oshirilayotgan ishlar va bu borada rivojlangan davlat rahbarlarining ayrim fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, kompleans nazorat, milliy agentlik, qonuniy asoslar halollik, rostlik, to'g'rilik, oliy ta'lim tizimi.

АННОТАЦИЯ

В статье представлены коррупционные явления в системе высшего образования, правовые основы борьбы с ними, работа Национального агентства по борьбе с коррупцией, а также некоторые мнения лидеров развитых стран по этому поводу.

Ключевые слова: коррупция, комплаенс-контроль, национальное агентство, правовая основа, честность, правда, правильность, система высшего образования.

ABSTRACT

The article presents corruption phenomena in the higher education system, the legal framework for combating them, the work of the National Anti-Corruption Agency, as well as some opinions of the leaders of developed countries on this issue.

Keywords: corruption, compliance control, national agency, legal framework, honesty, truth, correctness, higher education system.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya holatlari, asosan, talabalik safiga qabul qilish, o'qish jarayonida topshiriladigan turli sinovlar, talabalarning bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish, magistraturaga qabul, shuningdek, talabalarning o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklashda korrupsiya holatlari kuzatiladi.

2022-yil va joriy yilning o'tgan davrida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni asosida **oliy ta'lim tizimida "korrupsiyasiz soha"** loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida yangi O'zbekiston ma'naviyatida halollik, to'g'rilik tamoyili hayotimizning bosh qadriyatiga aylanishi, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy illatlarga, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik rolini oshirish, kerak bo'lsa, to'g'rilik, halollikka barcha vositalar bilan bo'lsa ham o'rgatish masalasiga alohida to'xtalib o'tildi. Jamiyatda halollik, rostlik, to'g'rilik fazilatiga ega bo'lishga intilishning yalpi ijtimoiy harakatga aylanishi ijtimoiy zaruratdir. "Korrupsiyaga qarshi kurashishda, – deb ta'kidladi Shavkat Mirziyoev – aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksina"si bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak".¹

Lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "yemirilish", "buzilish" degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya so'zining ijtimoiy ko'rinishi «hokimiyatni buzish, chiritish orqali sotib olish» degan ma'noni beradi. Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdan iboratdir.²

2022-yil va joriy yilning o'tgan davrida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni asosida **oliy ta'lim tizimida "korrupsiyasiz soha"** loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda olib

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. // Манба: www.president.uz/uz/lists/view/3324

² (Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги Қонуни, 3-модда).

borilayotgan ishlar O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilanmoqda. Shuningdek, **Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** tizimida komplayens nazoratni o‘rnatish, kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish, attestatsiyadan o‘tkazish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar berish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, davlat xaridlarini amalga oshirishning ochiq va shaffof mexanizmlarini o‘zida ifodalagan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish, xizmat siri, maxfiylik qoidalari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha **18 ta** ichki idoraviy hujjatlar xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqildi va tizim faoliyatiga tatbiq etildi. Tizim faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar o‘rganilib, sohada korrupsiya holati mavjud bo‘lishi ehtimoli bor bo‘lgan korrupsion xavf-xatarlar kuzatilayotgan yo‘nalishlar belgilab berildi.

Xususan, oliy ta’lim jarayonlarini boshqarishga mo‘ljallangan HEMIS axborot tizimini joriy etish orqali 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab talabalarning shaxsiy varaqasi, guruh jurnali, reyting daftarchasi, dars jadvali, davomat va o‘zlashtirish qayd varaqalarini raqamlashtirish, ularni qog‘oz ko‘rinishida yuritilishini bekor qilish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, vazirlik markaziy apparati, uning tuzilmalari, oliy ta’lim muassasalari, kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalarida “komplayens-nazorat” tizimi joriy etildi.

Jumladan, **108 ta** davlat va **2 ta** nodavlat (Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti va Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filiali) oliy ta’lim muassasalarida **182 ta** shtat birligidan iborat **Korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limlari** tashkil etildi. Bo‘lim xodimlari uchun 14 soatlik masofaviy malaka oshirish kurslari tashkil qilindi va 50 nafar xodimga Huquqni muhofaza qilish akademiyasi (sobiq Bosh prokuratura akademiyasi) tomonidan kasbiy malaka oshirilganligi bo‘yicha sertifikat berildi.

Ushbu bo‘limlar zimmasiga korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, talaba yoshlar va pedagog xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash, oldini olish va bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, davlat xaridlarini amalga oshirish va fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini shaffof va ochiqligini ta’minlash vazifalari yuklatildi. Ushbu bo‘limlar tomonidan talabalar va pedagog xodimlar orasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ta’lim jarayonining shaffofligi va ochiqligini ta’minlashga qaratilgan anonim so‘rovlar o‘tkazildi.

Shu bilan birga, barcha toifa xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida ularga korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy hujjatlar to'plami tarqatildi. Talaba-yoshlar o'rtasida mavzuga doir insho yozish, rasm chizish va videoroliklar tayyorlash bo'yicha tanlovlar o'tkazildi. Korrupsiyaning salbiy oqibatlarini aks ettiruvchi videorolik va targ'ibot materiallari tayyorlanib, rasmiy veb-saytga joylashtirildi. **Shuningdek**, barcha oliy ta'lim muassasalarida anonim so'rovlar va boshqa murojaat kanallari orqali kelib tushayotgan ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va tasdiqlangan ma'lumotlar asosida tegishli chora ko'rish uchun ta'lim muassasasi rahbariyatiga axborot berish tizimi joriy etildi.

Talabalar va pedagog xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda ular orasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida rasmiy telegram bot tashkil etildi. "Ishonch telefoni" va **anticor@edu.uz** elektron pochta faoliyati yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv binolarida "**Adolat qutilari**" o'rnatildi.

Bundan tashqari, sohaga oid ayrim me'yoriy-huquqiy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Natijada tizimli korrupsiyaning oldi olinib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning mavjudlik darajasi minimallashtirildi. Xorijdan o'qishni davlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirishni Vazirlik huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (sobiq Davlat test markazi) orqali amalga oshirish tartibi yo'lga qo'yildi. Magistratura bosqichlariga imtihonsiz qabul qilish tartibi tashkil etildi. Abiturientlarga yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim muassasasini tanlash, qo'shimcha kvotalar ajratish va qo'shimcha to'lov kontraktini to'lash muddatlari uzaytirildi. Barcha xodimlarga manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimasligi bo'yicha deklaratsiya to'ldirish tizimi joriy etildi. Ishga qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida milliy vakansiyalar bazasining **http.ish.mehnat.uz** va <http://vacancy.edu.uz> saytlariga bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlar e'lon qilish tartibi yo'lga qo'yildi.

Ammo yuqorida keltirilgan sa'y harakatlarga, oliy ta'lim tizimida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan shu kabi chora-tadbirlar kuchaytirilganligiga qaramasdan korrupsiyaviy omillar va xavf-xatarlar hamon saqlanib qolmoqda¹.

Shu o'rinda korrupsiyaga qarshi kurashni o'z mamlakatida muvaffaqiyatli amalga oshirgan ikki davlat rahbarining fikrlarini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz.

Isroil davlatining 5-Bosh vaziri Golda Meir xonim shunday vasiyat qoldirgan ekan:

"... Agar Siz o'g'il-qizlari unga doimo qaytadigan, aholisi undan faqat ta'til mavsumidagina chetga chiqadigan, uning hududida kelajak uchun qo'rquv hissi

¹ <https://anticorruption.uz/uzc/item/2023/05/19/2022-yil-va-joriy-yilning-otgan-davrida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish>

bo'lmaydigan Vatan qurmoqchi ekansiz, quyidagi ikki qadamni qo'ying: Birinchidan, korrupsiyani vatanga xoinlikka, korrupsionerni esa eng ashaddiy sotqinga tenglashtiring. Ikkinchidan, harbiylar, o'qituvchilar va shifokorlarni eng katta maosh to'lanadigan kasb egalariga aylantiring. Eng muhimi, mehnat qiling, mehnat qiling va mehnat qiling. Negaki, Sizni o'zingizdan boshqa hech kim himoya qilmaydi, boqmaydi. Sizning Vatan o'zingizdan boshqaga kerak emas. Agar, ana shu aytganlarim oddiy so'z va shior bo'lib qolmasdan, turmush tarzingizga aylansa, siz o'z maqsadingizga erishgan bo'lasiz."

Singapur iqtisodiy mo'jizasi asoschisi Li Kuan Yu:

Menda ikkita yo'l bor edi: Birinchisi o'g'irlash va do'stlarim hamda qarindoshlarimni "Forbs" ro'yxatiga kiritish, bu bilan xalqimni quruq yerda qoldirish. Ikkinchisi – xalqimga xizmat qilish va mamlakatni dunyoning eng yaxshi davlatlari o'nligiga kiritish. Men ikkinchisini tanladim.

Singapur Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash siyosati tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Rahbarlar shaxsiy namuna ko'rsatishi;
2. Lavozimga tayinlanishda xalollik;
3. Mulk va daromadlarni deklaratsiya qilish;
4. Qonun ustuvorligi mustahkamlanishi;
5. Jamoatchilik izzasi;
6. Javobgarlik maqarrarligi;
7. Davlat va shaxsiy manfaatlar cheklanishi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning hozircha quyidagi huquqiy asoslari mavjud:

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrdagi O'RQ-445-sonli «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O'RQ457-sonli «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi O'RQ472-sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ474-sonli «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O'RQ537-sonli «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

Ushbu qonunlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlanib, amalda ish faoliyatida bo‘lsagina kutilayotgan ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida yuqoridagi keltirilgan dolzab muammolarni kelib chiqishi, jumladan har bir soha va uning faoliyatida korrupsiyani oldini olishda avvalombor, o‘sha soha mutaxassislarida yetuk insoniy fazilatlarni, shu jumladan diniy e‘tiqodiga sodiq bo‘lgan hamda o‘zining huquqiy ongi va madaniyati yuksak bo‘lgan soha vakillarini shakllantirish orqali biz jamiyatimizning har bir bo‘g‘inida chinakamiga korrupsiyasiz hayotni joriy etgan bo‘lamiz. Inson tug‘ilib-on ona qvujudidan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmas hech qachon, uning hayot davomida va turmush tarzida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishga imkoniyat va shart-shart yaratadigan vazifa va lavozimlarda faoliyat yuritishi va aynan o‘sha lavozimda ushbu jinoyatni sodir etishga imkoniyat yaratilib qo‘yilganligi natijasida korrupsiyaviy jinoyatlar va ularning turli xil ko‘rinishdagi turlari hayot faoliyatimizda tez-tez uchrab turishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Aynan shu kabi illatlarni oldini olishimiz uchun biz fuqarolar jamiyatda o‘zimizning huquqiy madaniyatimizni oshirib, bo‘layotgan har qanday voqelikga to‘g‘ri xulosa qilishimiz va jamiyatda kuzatilayotgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik to‘g‘risida o‘z vaqtida huquqni muxofaza qiluvchi mas‘ul tashkilotlarga murojaat qilishimiz bu bizning fuqorolik pozitsiyamizni chinakamiga vijdonan ado etishimizga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentabrdagi 27-son buyrug‘iga asosan, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi na‘munaviy Nizom tashkil etilgan bo‘lib, ushbu Nizomning 4-bandida “Nazorat tuzilmalari o‘z faoliyatida bevosita tashkilotning birinchi rahbariga (kuzatuv kengashiga) bo‘ysunadi” degan normaning mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan ushbu normaning keltirilishi natijasida har bir tashkilotda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplayens nazorat” tuzilmalarining chinakam mustqilligi ta‘minlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu norma ushbu tashkilot va korxonada mavjud korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tashkilot rahbari tomonidan sodir etish imkoniyatini yanada oshirishga shart-sharoit yaratib beradi degan fikrdaman. Jumladan tashkilotdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplayens nazorat” tuzilmasining mas‘ul xodimlari tashkilot rahbariga mehnat kodeksiga asosan xodim sifatida ish beruvchiga bo‘ysunishi o‘z navbatida manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqishiga sabab bo‘lishi hamda tashkilot yoki muassasasa rahbarining korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga oid faoliyati o‘z vaqtida mas‘ul xodimlar tomonidan aniqlanmasdan yoki aniqlangan

ma'lumotlar esa, tegishliligi bo'yicha mas'ul bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yetib bormasligi, korrupsiyaviy faoliyatiga oid ma'lumotlarga yetarli darajada huquqiy baho berilmasdan qolishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tmoqchiman. Aynan ushbu - Korrupsiyaga qarshi kurashish va "komplayens nazorat" tuzilmasining mehnat qonunchiligi bo'yicha bo'ysunuv darajasini mustaqil qilish hamda ish beruvchi sifatida tashkilot rahbariga bo'ysunuvini bekor qilish hamda ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha qonun loyihasini tayyorlab, amalga kiritilsa, men o'ylaymanki, har bir tashkilotning tarkibiy tuzilmasida tashkil etilgan ushbu bo'lim - "komplayens nazorat" tuzilmasining ish faoliyatida natijadorlik ko'rinadi hamda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning keskin kamayishiga sabab bo'ladi degan xulosaviy fikrdaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. // Manba: www.president.uz/uz/lists/view/3324
2. (O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda).
3. <https://anticorruption.uz/uzc/item/2023/05/19/2022-yil-va-joriy-yilning-otgan-davrida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish>